

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

MOLIYAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI

Ashurova Jasmina Akram qizi

Buxoro muhandislik - texnologiya instituti 714-22 IQT guruh talabasi

B. F. Azimov

Buxoro muhandislik - texnologiya institute "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

**СТАТИСТИЧЕСКОЕ НАБЛЮДЕНИЕ И ЕГО МЕТОДЫ В ФИНАНСОВОМ
СЕКТОРЕ**

Ашурова Жасмина Акрам кизи

Бухарский инженерно-технологический институт Студент группы 714-22 IQT

Азимов Б.Ф.

Бухарский инженерно-технологический институт, Доцент кафедры «Экономика»

**STATISTICAL OBSERVATION AND ITS METHODS IN THE FINANCIAL
SECTOR**

Ashurova Jasmina Akram kizi

Bukhara Institute of Engineering and Technolog, 714-22IQT group student

B. F. Azimov

*Bukhara Institute of Engineering and Technology, Associate professor of the
"Economics" department*

Har qanday moliyaviy munosabatlar sohasida statistik tadqiqot uch bosqichni o'z ichiga oladi:

- statistik kuzatish;
- kuzatish materiallarini svodkalash va guruhlash;
- kuzatilayotgan voqeani har tomonlama tavsiflovchi - umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni tahlil qilish. Hayot turli xil hodisalarning almashinuvidir. Fransuz yozuvchisi Balzak: "Istagan joyda qulay ahvolda qolish uchun ularni o'rganish va kuzatish kerak, degan edi. Binobarin, har qanday statistik tadqiqot o'sha o'rganilayotgan obyekt haqida tegishli ma'lumotlarni to'plash bilan boshlanadi-kuzatish materiallarini svodkalash va guruhlash;

Turmushimizda, kundalik hayotimizda u yoki bu masalani yechishni ko'zlab qiladigan har bir xatti-harakatimizdan oldin nima uchun?, nima?, kim?, qanday qilib?, qancha? va qayerda? degan savollarga duch kelamiz va ularga javob axtaramiz. Bunday savol statistik kuzatishlarni tashkil etishda ham tug'iladi va o'z yechimini kutadi.

Moliyaviy sektordagi iqtisodiy munosabatlarni statistik kuzatishda nima uchun? degan savolga kuzatish maqsadi va vazifalari, nima? degan savolga esa kuzatish obyekti, uning

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

birligi va dasturi, statistik formulyarlar va ularni tuzish uchun yo'riqnomalar javob beradi. Kim? deganda kuzatish subyekti, qachon? deganda kuzatish vaqti, qayerda? deganda kuzatish joyi, qanday qilib? deganda kuzatish usullari va turlari, qancha? deganda kuzatish belgilarining miqdoriy ifodalanishi nazarda tutiladi. Bular statistik kuzatishning dasturiy-uslubiy va tashkiliy unsurlarini tashkil etadi.

Moliyaviy sektordagi iqtisodiy munosabatlarni statistik kuzatish – o'rganilayotgan ommaviy hodisalar haqida boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash jarayonidir. Statistik kuzatish va uning natijasida to'planadigan ma'lumotlar uchta talabga javob berishi kerak, ya'ni: 1) aniqlik va to'g'rilik; 2) to'liqlik va har taraflamalik; 3) taqqoslamalik, solishtirmaslik.

Statistik kuzatish jarayonida boshlang'ich ma'lumotlarni olish turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Statistik kuzatish usullari, o'z navbatida, 3 turga bo'linadi:

1. Bevosita kuzatish usuli.
2. Hujjat bo'yicha kuzatish usuli.
3. Savol-javob usuli.

Bevosita kuzatish usuli kuzatilayotgan hodisalarni shaxsan ko'rish, sanash, tortish va o'lchash orqali olingan ma'lumotlar-ni kuzatish varag'ida qayd qilishdir.

Hujjat bo'yicha kuzatish usulida o'rganiladigan to'plam bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni tegishli hujjatlardan olish tushuniladi.

Savol-javob yo'li bilan kuzatish – kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilib, olingan javoblar asosida kuzatish varaqalari to'ldiriladi. Bu holda hech qanday hujjat talab qilinmaydi. Bu usulning uchga bo'linadi:

1. Og'zaki usul (ekspeditsion);
2. O'z-o'zini qayd qilish usuli;
3. Korrespondentsiya usuli.

Og'zaki usulda maxsus tayyorlangan kishilar (hisobchilar) kuzatilayotgan shaxslarga kuzatish varaqasidagi savollarni berib, olgan javoblarini varaqaga yozadilar.

O'z-o'zini qayd qilish usulida kuzatishni o'tkazuvchi tashkilotning vakillari maxsus varaqalarni kuzatayotgan shaxslarga tarqatadilar va ma'lum vaqtdan so'ng to'ldirilgan varaqalarni yig'ishtirib oladilar.

Korrespondentsiya usulida zarur ma'lumotlar statistika tashkilotlariga ixtiyoriy korrespondentlar tomonidan yuborib turiladi.

Statistik kuzatish o'rganilayotgan hodisa to'g'risida ko'pdan-ko'p ma'lumotlarni to'plashga imkon tug'dirsa-da, lekin olingan ma'lumotlarning tarqoqligi sababli hodisa to'g'risida umumiy xulosalar yasashga imkon bermaydi. Shuning uchun ham mazkur ma'lumotlarni bir tizimga solish, qayta ishlash navbatdagi vazifa hisoblanadi. Bu bosqich har qanday statistik tadqiqotning keyingi bosqichi bo'lib, statistik kuzatish materiallarini svodkalash va guruhlash deb yuritiladi.

Moliyaviy sektordagi iqtisodiy munosabatlarni statistik kuzatish statistik tekshirishning birinchi bosqichidir. U tasviriy statistikaning asosi, ommaviy hodisa va jarayonlarni

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

o'rganishning eng muhim va mas'uliyatli davri hisoblanadi, chunki tekshirishning pirovard natijasi avvalom bor kuzatish jarayonida to'plangan ma'lumotlarga bog'liq. Aniqlik, to'lalilik va taqqoslamalik statistik kuzatishning asosiy ilmiy prinsiplari va qonunidir. Statistik kuzatish hisobdan, oddiy bir predmetli kuzatishdan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Statistik kuzatish har doim ommaviy xarakterga ega, uning obyekti bo'lib ommaviy hodisa va jarayonlar xizmat qiladi. Statistik kuzatish hisobni, oddiy bevosita kuzatishni o'z ichiga oladi, chunki ayrim hodisalarni qayd qilish yo'li bilan ularning to'plami haqida ma'lumotlar olinadi. Bu holda ayrim hodisa statistik kuzatish obyekti birligi hisoblanadi. Statistik kuzatish qator dasturiy-uslubiy va tashkiliy masalalarni ilmiy asosda yechishni talab qiladi. U haqqoniy ma'lumotlar yetkazib berishi uchun kuzatish obyekti va birligi to'g'ri aniqlanishi, chegaralanishi, uning dasturi, hujjati (statistik formulyasi) va yo'riqnomasi to'g'ri tuzilishi, vaqti va joyi to'g'ri belgilanishi kerak. Boshqa masalalar, chunonchi kuzatish usuli va turi, shakli, yo'llari va hokazolar ham ilmiy asosda yechilishi lozim. To'g'ri, ilmiy asosda deganda zikr etilgan masalalarni yechish jarayonida kuzatilayotgan hodisalarning mohiyatiga ichki bog'lanishlariga, rivojlanish qonun va qonuniyatlariga tayanish zarurligi nazarda tutiladi. Ma'lumki, ular tegishli nazariy fanlar predmeti hisoblanadi, masalan iqtisodiy hodisalar mohiyatini, ularning muhim xususiyatlarini, ichki bog'lanishlarini, rivojlanish qonuniyatlarini yoritish iqtisodiy nazariya va boshqa iqtisodiy fanlar predmetidir. Tarixiy manbalar asosida u yoki bu davrga tegishli buyumlar, ularning xususiyatlari va o'zaro bog'lanishlarini aniqlash, turli joylarda izlanishlar o'tkazib, har xil buyumlar yoki ularning parchalarini topish, topilmalarning xususiyatlarini aniqlash va modullar yasash va hokazolar - bularning hammasi arxeologiya fanining predmeti hisoblanadi. Bunday nazariy ta'limotlarni bilmasdan, ularga tayanmasdan statistik kuzatish obyekti va birligi, uning dasturini muvaffaqiyatli aniqlash va boshqa uslubiy va tashkiliy masalalarni salgina bo'lsada to'g'ri yechish mumkin emas.

Statistik kuzatish uch bosqichga ega: 1) kuzatishni tayyorlash; 2) uni amalga oshirish; 3) kuzatish materiallarini qabul qilish. Ular o'zaro bog'langan bo'lib, ma'lum masalalarni yechadi. Hamma bosqichlarda kuzatish natijasida to'planadigan ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlovchi tadbir-choralar amalga oshirilishi kerak. Agarda birinchi bosqichda yechimlar qabul qilish jarayonida nazariy adekvatlikni ta'minlash tadbir-choralari ko'rilsa, ikkinchi bosqichda ularga qat'iy rioya qilish ustidan uzluksiz nazorat olib boriladi, uchinchi bosqichda esa kuzatish materiallarini har taraflama tekshirish yo'li bilan ulardagi xatolar aniqlanadi va bartaraf etish tadbir - choralari amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kurbonali, S., & Umarali, Y. (2023). AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHYSICAL FITNESS OF COLLEGE STUDENTS. Conferencea, 188-191.
2. Мамажонов, Н., Хамракулов, Р. А., Хайдаралиев, Х., Хасанов, А., Бобожонов, Н., & Усмонов, З. КБК: 751 М23 Ташкилий кумита.
3. Majidov, R. R., Boqiyev, F. H., Raximov, D. R., Saydaxmadov, A. V., Soliyev, I. S., & Abduqodirov, D. S. (2023). JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI DARS MASHG ‘ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 28-32.
4. Boqiyev, F. (2024). MASSAJ VA GIMNASTIKA MASHQLARI ORQALI REFLEKTOR HARAKATLAR VA “HARAKAT XOTIRASI” NI TAKOMILLASHTIRISH. SPORT VA XORIJIY TILLAR INTEGRATSIYASINING AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI, 1(1), 365-369.
5. Fazliddin, B. (2024). BO ‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O ‘QITUVCHILARINI TURISTIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. Research and implementation, 2(4), 142-146.